

OTA-ONASI MIGRANT VA MIGRANT BO‘LMAGAN O‘SMIRLARNING O‘Z “MEN”INI ANGLASHIDA GENDER OMILINING ROLI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-428-432>

D.B.Botirova

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrası v.b.dotsenti
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),*

Rustamova Dildora

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Psixologiya yo‘nalishi 1-kurs magistranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada ota-onasi migrant va migrant bo‘lmagan oilalarda voyaga yetayotgan o‘smirlarning o‘z “Men”ini anglash jarayonida gender omilining roli adabiyotlar tahlili asosida yoritilgan. Ilmiy manbalar tahlili orqali tashqi mehnat migratsiyasining oilaviy-emotsional muhitga ta’siri, o‘smirlarning identiteti va genderni xos psixologik xususiyatlarining shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. Tadqiqot migrantlik sharoitida o‘g‘il va qiz o‘smirlarda “Men-konsepsiyasi”ning differensial shakllanish mexanizmlarini tushuntirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: O‘smirlik; “Men-konsepsiyasi”; identitet; gender omili; gender identiteti; mehnat migratsiyasi; migrant oila; emotsional xavfsizlik; oilaviy rollar; ota-ona masofaviy ishtiroki; ijtimoiy-psixologik determinantlar.

Аннотация: В статье на основе анализа научной литературы рассматривается роль гендерного фактора в процессе осознания собственного «Я» у подростков из семей трудовых мигрантов и немигрантов. В ходе теоретического анализа раскрывается влияние внешней трудовой миграции на семейно-эмоциональную среду, а также на формирование идентичности и гендерно обусловленных психологических особенностей подростков. Исследование направлено на выявление механизмов дифференцированного формирования «Я-концепции» у мальчиков и девочек в условиях миграции.

Ключевые слова: Подростковый возраст; «Я-концепция»; идентичность; гендерный фактор; гендерная идентичность; трудовая миграция; семья мигрантов; эмоциональная безопасность; семейные роли; дистанционное участие родителей; социально-психологические детерминанты.

Abstract: The article examines the role of the gender factor in the process of self-identity formation among adolescents from migrant and non-migrant families based on a review of scientific literature. The analysis highlights the impact of labor migration on the family emotional environment and its influence on adolescents’ identity development and gender-related psychological characteristics. The study focuses on explaining the mechanisms of differential formation of self-concept among male and female adolescents under migration conditions.

Key words: Adolescence; self-concept; identity; gender factor; gender identity; labor migration; migrant family; emotional security; family roles; parental remote involvement; socio-psychological determinants.

So‘nggi o‘n yilliklarda tashqi mehnat migratsiyasi oilaviy tizimning ichki muvozanatiga, tarbiya resurslariga hamda o‘smirlarning psixologik rivojlanish trayektoriyalariga bevosita ta’sir ko‘rsatayotgan omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Migratsiya faqat iqtisodiy “strategiya” bo‘lib qolmay, oilaviy rollar, emotsional yaqinlik, nazorat va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini qayta taqsimlaydi; natijada o‘smirlik davridagi eng muhim psixologik vazifa — o‘z “Men”ini anglash jarayoni ham yangi sharoitda kechadi. Jahon migratsiyasi tendensiyalarini umumlashtiruvchi yirik tahliliy manbalarda migratsiyaning ijtimoiy institutlar (xususan, oila) faoliyatiga ko‘p qatlamli ta’siri, migratsiya oqimlarining tarkibi va motivlaridagi o‘zgarishlar qayd etiladi; bu esa “oilaviy ajralish”, “masofaviy nikoh” va “tarbiyadagi vakuum” kabi ikkilamchi psixologik oqibatlarni kuchaytirishi mumkin.[1]

Ota-onaning migratsiyaga ketishi sharoitida o‘smirda o‘zini baholash, identifikatsiya, mas’uliyatni qabul qilish, jinsiy rol (gender rol)ni o‘zlashtirish jarayonlari odatdagi oilaviy muhitga nisbatan boshqacha mexanizmlar bilan qo‘llab-quvvatlanadi. UNICEF tadqiqotlari asosida keltirilgan raqamlar bu muammoning emotsional fonini ochib beradi: ota-onasi migratsiyaga ketgan bolalarning qariyb 33 foizi o‘zini baxtsiz his qilishi, 21 foizi xavotirni boshdan kechirishi, shuningdek, vasiylikka qolish va uy yumushlari yuklamasining ortishi kabi holatlar qayd etilgan.[2] Mazkur ko‘rsatkichlar “Men-konsepsiyasi” shakllanishining affektiv poydevori (xavfsizlik hissi, tayanch shaxsga ishonch, emotsional barqarorlik) izdan chiqishi ehtimolini kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan, migrant va migrant bo‘lmagan oilalarda voyaga yetayotgan o‘smirlarning o‘z “Men”ini anglashida gender omilini alohida tahlil qilish ilmiy jihatdan muhim: chunki migratsiya oiladagi rollarni qayta “sozlaydi”, jamiyatdagi gender kutishlari esa o‘g‘il va o‘smir qizlarda bir xil stressorni turlicha psixologik oqibatlarga aylantiradi.

O‘smirning tengdoshlar bilan munosabatlari, o‘zini guruhda tutishi, o‘z qadrini his etishi ko‘p jihatdan oilaviy muhitda shakllangan emotsional aloqa va muloqot uslubiga tayangan holda rivojlanadi. Oila — gender sotsializatsiyasining eng erta va eng kuchli instituti bo‘lib, unda bola “qaysi xulq qabul qilinadi/qabul qilinmaydi”, “kim nimaga mas’ul”, “erkaklik/ayollik me’yorlari” kabi ijtimoiy kodlarni amalda ko‘radi va ichkilashtiradi. Oiladagi emotsional iqlim va muloqot uslubi o‘smirning gender identiteti, ijtimoiy moslashuvi hamda shaxsiy sifatleri shakllanishi bilan uzviy bog‘liq.[3] Migrant oilalarda aynan shu mexanizm murakkablashadi: ota yoki onaning uzoqda bo‘lishi oilaning “kuzatuv-nazorat”, “qo‘llab-quvvatlash”, “model ko‘rsatish” funksiyalarini to‘liq bajarishiga to‘sqinlik qiladi. Bu esa o‘smirning o‘z “Men”ini anglashida ikki xil yo‘nalishdagi riskni kuchaytiradi: Birinchisi, emotsional xavfsizlikning pasayishi. Emotsional tayanch yetishmaganda o‘smir o‘zini “himoyalangan” his qilish uchun ko‘proq tashqi bahoga suyanishi yoki aksincha, himoyaviy yopilish (emosional uzoqlashish) strategiyasini tanlashi mumkin. Bu strategiyalar “Men” obrazini

barqarorlashtirgandek ko‘rinsa-da, ko‘pincha ichki ziddiyatlar (aybdorlik, xavotir, norozilik, o‘zini qadrsizlanishi) fonida shakllanadi.[2]

Ikkinchisi, gender rollarning deformatsiyasi yoki keskin qayta taqsimlanishi. Migrant oilada kim “bosh”, kim “qaror qabul qiladi”, kim “resursni ta‘minlaydi”, kim “tarbiyani olib boradi” kabi rollarni o‘zgartiradi. Bu holat o‘smirning jinsiy rol o‘zlashtirishiga bevosita ta‘sir qiladi: o‘g‘il bola “erkaklik”ni mas‘uliyat va ta‘minot bilan haddan tashqari bog‘lab qo‘yishi yoki “masofadagi ota” modeliga identifikatsiya qilolmasligi mumkin; qiz bola esa “ayollik”ni bir vaqtning o‘zida ham parvarish, ham nazorat, ham “oilani ushlab turish” vazifalari bilan ortiqcha yuklama qabul qilishi ehtimoli ortadi.[3]

Bu yerda gender omili “filtr” vazifasini bajaradi: Migrant oiladagi o‘smir yigitlar uchun risk mexanizmi ko‘pincha “instrumental erkaklik”ning keskin kuchayishi orqali ishlaydi: u o‘zini “ta‘minlay oladigan”, “bardoshli” bo‘lishga majbur his qiladi, lekin real emotsional qo‘llab-quvvatlash yetishmasa, tajanglik, impulsiv reaksiya, o‘zini “yetarli emas” deb his qilish kuchayishi mumkin. Bunday holatda “Men” konsepsiyasi ko‘proq himoyaviy mexanizmlar (keskin mustaqillashish, tajovuzkorlik yoki befarqlik) bilan barqarorlashtiriladi.[3] Migrant oiladagi o‘smir qizlar uchun esa risk mexanizmi ko‘proq “emotsional xizmat” va “parvarish roli”ning ortiqcha kuchayishi bilan bog‘lanadi: u uy yumushlari, uka-singillar nazorati, kattalarga bo‘ysunish kabi vazifalarni ko‘proq zimmasiga olishi mumkin. UNICEF asosidagi keltirilgan ma‘lumotlarda uy majburiyatlarining ortishi qayd etilgani aynan shu yo‘nalishning psixologik fonini ko‘rsatadi.[2] Natijada o‘smir qizda aybdorlik, xavotir, “hammani ushlab turishim kerak” ssenariyi, o‘z ehtiyojlarini ikkinchi o‘ringa surish orqali identitet shakllanishi ehtimoli ortadi.

Migrant bo‘lmagan oilalarda ota-onaning doimiy emotsional ishtiroki, kundalik muloqot va nazoratning uzluksizligi identitetning barqarorroq shakllanishi uchun psixologik resurs yaratadi. Oiladagi “iliq” emotsional muhit, ota-ona qo‘llab-quvvatlashi va muloqotning moslashuvchan uslubi o‘smirning ijtimoiy moslashuvi hamda gender identifikatsiyasi uchun himoya omili hisoblanadi.[3]

Bunda gender farqlari ham barqarorroq “kanal” orqali shakllanadi: o‘g‘il bola otaning real kundalik modelini, qiz bola onaning real kundalik modelini ko‘rishi, shu bilan birga, oila ichida rollar muvozanati buzilmagani sababli “Men” konsepsiyasi ko‘proq izchil rivojlanadi. Migrant bo‘lmagan oilalarda o‘smirning “Men”ini anglash jarayonida asosiy tayanch — “yaqin kattalar” bilan emotsional aloqa va barqaror nazorat — uzilmagani uchun, gender rolining ijtimoiy bosimi ham ko‘pincha yumshoqroq kompensatsiya qilinadi.[3]

Migratsiya ko‘pincha “moddiy resursni oshirish” bilan asoslanadi, lekin bu strategiya oilaviy-emotsional resurslarni qisqartirib yuborishi mumkin. Ya‘ni iqtisodiy motiv bilan boshlangan qaror emotsional aloqalarga zarba berib, tarbiya va psixologik qo‘llab-quvvatlashni kamaytiradi; natijada o‘smirning “Men” konsepsiyasi shakllanishida nomutanosiblik yuzaga keladi (moddiy yordam ↑, emotsional yordam ↓).

Bu nomutanosiblik gender kesimida turlicha “o‘qiladi”: o‘smir yigitlar “pul topish = erkaklik” degan soddalashtirilgan sxemani ichkilashtirishi, o‘smir qiz esa “chidash va hammani ushlab turish = ayollik” sxemasini kuchaytirishi mumkin. Shuning uchun migratsiya motivlarini, oiladagi emotsional oqibatlar bilan birga tahlil qilish genderga xos identitet ssenariylarini tushuntirishda muhim.

Oila tizimidagi o‘zgarishlarni faqat “his-tuyg‘u” darajasida emas, ta’lim va ijtimoiy institutlar bilan o‘zaro aloqada ham ko‘rish kerak. Migratsiya oilaning ichki resurslarinigina emas, o‘smirning maktab/tengdoshlar maydonida o‘zini tutish strategiyasini ham o‘zgartiradi; gender esa bu strategiyani “instrumental” yoki “emotsional-alloqaviy” yo‘nalishda tanlash ehtimolini kuchaytiradi.

Migrant va migrant bo‘lmagan oilalarda o‘smirning o‘z “Men”ini anglash jarayoni bir xil psixologik vazifa bo‘lsa-da, uning kechish sharoiti keskin farq qiladi. Migratsiya oilaviy tizimda emotsional yaqinlik, qo‘llab-quvvatlash va rollar muvozanatini o‘zgartiradi; bu esa o‘smir identitetining affektiv tayanchi (xavfsizlik, barqarorlik, “men qadrliman”)ni zaiflashtirishi mumkin.[2],[4] Gender omili esa shu ta’sirni differensiallashtiradi: o‘smir yigitlarda mas’uliyat va “instrumental erkaklik” bosimi kuchayishi, o‘smir qizlarda esa parvarish roli va ichki aybdorlik/xavotir ssenariylarining kuchayishi ehtimoli ortadi.[3],[4] Migrant bo‘lmagan oilalarda esa emotsional aloqa uzluksizligi va rollar barqarorligi “Men” konsepsiyasini izchilroq shakllantirish uchun himoya omili vazifasini bajaradi.[3]

Migrant oilalar bilan ishlashda “umumiy nasihat” emas, aniq psixologik texnologiyalar va institutlararo mexanizmlar talab qilinadi. Burieva M.Sh. tadqiqotida er-xotin munosabatlaridagi emotsional buzilishlarni oldini olishga qaratilgan bosqichli yondashuv (intrapsixik, diadik, ijtimoiy, yakuniy bosqichlar) konseptual jihatdan bayon etilgan; bu modeldan o‘smirlar bilan ishlashda ham metodik “ramka” sifatida foydalanish mumkin: avval o‘smirning ichki kechinmalarini aniqlash (intrapsixik), so‘ng oilaviy muloqotni yo‘lga qo‘yish (diadik), keyin qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy tarmoqlarni faollashtirish (maktab/mahalla/psixolog) va yakunda barqarorlashtiruvchi ko‘nikmalarni mustahkamlash.[4]

Migrant oiladagi o‘smir yigitlar bilan ishlashda “mas’uliyat”ni faqat moddiy ta’minot yoki “kuch” bilan emas, emotsional savodxonlik va o‘zini boshqarish ko‘nikmalari bilan bog‘lash zarur. Bunda maktab psixologi va sinf rahbari hamkorligida agressiya va impulsiv reaksiyalarni yumshatishga qaratilgan o‘zini boshqarish protokollari (triggerlarni aniqlash, alternativ xulq repertuari, ijtimoiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalari) joriy qilinishi mumkin; bu o‘smir yigitlarning “Men” obrazini “faqat kuch” emas, “nazorat va mas’uliyat” bilan kengaytiradi. [3], [4]

Migrant oiladagi o‘smir qizlar bilan ishlashda “haddan tashqari bosim” va “ichki aybdorlik” riskini kamaytirish ustuvor bo‘lishi kerak. Uy majburiyatlari ortishi qayd etilgan sharoitda[2] o‘smir qizga psixologik chegaralar (boundary)ni belgilash, yordam so‘rash, “men ham ehtiyojga egaman” degan legitimatsiyani berish muhim. Bu yo‘nalishda oilaviy muloqotni qayta sozlash (ota-ona bilan

muntazam videoaloqa, rejalashtirilgan emotsional “kontakt vaqti”, rag‘bat va tasdiqning (affirmation) ko‘paytirilishi) orqali “Men” konsepsiyasini himoyalash mumkin.[3],[4]

Migrant bo‘lmagan oilalarda esa profilaktika sifatida gender stereotiplarni qattiq mustahkamlab qo‘ymasdan, o‘smirga moslashuvchan rollar repertuarini beradigan oilaviy muloqot uslubini qo‘llab-quvvatlash lozim. Oiladagi muloqot sifati va emotsional muhit o‘smir shaxsiy sifatlarining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi; demak, “nazorat” va “mehr” muvozanati barqaror bo‘lishi identitetni sog‘lom shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.[3]

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. World Migration Report 2022. Russian Edition. International Organization for Migration (IOM). – Geneva, 2022. – 483 p.
URL: <https://publications.iom.int/system/files/pdf/WMR-2022-RU.pdf>
2. Как миграция родителей влияет на детей [Электронный ресурс] // Gazeta.uz. – 18.12.2021.
URL: <https://www.gazeta.uz/ru/2021/12/18/migrants/>
(UNICEF tadqiqotlari asosida)
3. Курдыбаха О. Н. Гендерная идентичность подростков и особенности её формирования // Психологическая наука и образование. – 2015. – № 3. – С. 45–56.
4. Bo‘riyeva M. Sh. Migrant oilalardagi er-xotin emotsional munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (tashqi mehnat migrantlari misolida) : psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent : «Oila va xotin-qizlar» ilmiy-tadqiqot instituti, 2024. – 52 b.
5. Sadullayeva J. I. Ayollarda migratsiya motivi namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari : psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025. – 48 b.
6. Александров Д. А., Баранова В. В., Иванюшина В. А. Дети и родители — мигранты во взаимодействии с российской школой // Вопросы образования. – 2012. – № 1. – С. 176–199.
7. Rustamova D. D. Ota-onasi migrant bo‘lgan o‘smirlarning ijtimoiylashuvi va psixologik moslashuvi muammolari [Elektron resurs] // *Ilm fan iftixori*. – 2025. – T. 1, № 1. –
URL: <https://interspp.com/index.php/ilmfaniftixori/article/view/1985>